

**Har doim, baʼzan, hech qachon****Kirish**

*Kirishni oʻqing. Soʻngra, "KEYINGISI" tumasini bosing.*

**Har doim, baʼzan, hech qachon**

Umuman olganda odamlarning mulohazalarini uchta toifaga guruhlash mumkin:

**Har doim** toʻgʻri boʻladigan mulohazalar;

**Baʼzan** toʻgʻri boʻladigan mulohazalar va

**Hech qachon** toʻgʻri boʻlmaydigan mulohazalar.

Mulohaza:

"4 ga boʻlinadigan son 2 ga ham boʻlinadi"

**Har doim** toʻgʻri, chunki 2 soni 4 ning boʻluvchisi.

Mulohaza:

"9 ga boʻlinadigan son 6 ga ham boʻlinadi"

**Baʼzan** toʻgʻri. Masalan, 36 soni 9 ga ham, 6 ga ham boʻlinadi, ammo 27 soni 9 ga boʻlinib, 6 ga boʻlinmaydi.

Mulohaza:

"Ikkita toq sonning yigʻindisi toq son boʻladi"

**Hech qachon** toʻgʻri boʻlmaydi, chunki ikkita toq sonning yigʻindisi har doim juft son boʻladi.



### Har doim, ba'zan, hech qachon

Savol 1/3

Har bir mulohazaning **har doim to'g'ri** yoki **ba'zan to'g'ri** ekanligini, yoki **hech qachon to'g'ri emas**ligini belgilang.

Mulohaza	Har doim to'g'ri	Ba'zan to'g'ri	Hech qachon to'g'ri emas
14 yoshli qiz bola hech bo'lmaganda hayotida bir marta hozirgi bo'yining yarmiga teng bo'lgan.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
14 yoshli qiz bolaning bo'yi 10 yoshli qiz bolaning bo'yidan uzunroq.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>

### Har doim, ba'zan, hech qachon

Umuman olganda odamlarning mulohazalarini uchta turli toifaga guruhlash mumkin:

**Har doim** to'g'ri bo'lgan mulohazalar;

**Ba'zan** to'g'ri bo'lgan mulohazalar; va

**Hech qachon** to'g'ri bo'lmagan mulohazalar.

Mulohaza:

"4 ga bo'linadigan son 2 ga ham bo'linadi"

**Har doim** to'g'ri, chunki 2 soni 4 ning bo'luvchisi.

Mulohaza:

"9 ga bo'linadigan son 6 ga ham bo'linadi"

**Ba'zan** to'g'ri. Masalan, 36 soni 9 ga ham, 6 ga ham bo'linadi, ammo 27 soni 9 ga bo'linib, 6 ga bo'linmaydi.

Mulohaza:

"Ikkita toq sonning yig'indisi toq son bo'ladi"


**Hech qachon** to'g'ri emas, chunki ikkita toq sonning yig'indisi har doim juft son bo'ladi.



### Har doim, ba'zan, hech qachon

Savol 2/3

Har bir mulohazaning **har doim to'g'ri** yoki **ba'zan to'g'ri** ekanligini, yoki **hech qachon to'g'ri emasligini** belgilang.

Mulohaza	Har doim to'g'ri	Ba'zan to'g'ri	Hech qachon to'g'ri emas
Butun sonning o'zini o'ziga ko'paytirganda natija juft son bo'ladi.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Butun sonning ikkilangani juft son bo'ladi.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Toq sonning yarmi butun son bo'ladi	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
$3x + 1 = \frac{6x + 2}{2}$	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
A shaklning perimetri B shaklning perimetridan katta .	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>
Agar tanga 50 marta yerga tashlansa, u 25 marta gerbli tomoni bilan yerga tushadi.	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>	<input type="radio"/>

**Har doim, ba'zan, hech qachon**

Savol 3/3

Quyidagi mulohazalarning har biri **ba'zan to'g'ri**.Mulohazalarning har biri qachon **to'g'ri** va qachon **noto'g'ri** bo'lishiga misol keltiring.

Mulohaza	Mulohaza qachon to'g'ri bo'lishiga misol	Mulohaza qachon noto'g'ri bo'lishiga misol
Tangalarining soni eng ko'p bo'lgan odam eng ko'p pulga ega.	<i>Misolingizni shu yerga kiriting</i>	<i>Misolingizni shu yerga kiriting</i>
$A - B = B - A$	<i>Misolingizni shu yerga kiriting</i>	<i>Misolingizni shu yerga kiriting</i>
Agar kasrning surat va maxrajiga bir xil sonni qo'shsak, kasrning qiymati oshadi.	<i>Misolingizni shu yerga kiriting</i>	<i>Misolingizni shu yerga kiriting</i>